

**Yevroosiyo mintaqasida XIV asr Turon davlatining tashqi siyosiy
strategik ahamiyati**

Tog'ayeva Dilnoza Miraxmatovna

O'zDJTU 1–bosqich doktoranti

ANNOTATSIYA

Yevroosiyo mintaqasidagi tashqi–siyosiy aloqalar va hamkorlik munosabatlari hududida hukumronlik qilgan siyosiy boshqaruv kuchiga ega bo'lgan Oltin O'rda, Usmonli turk, Turon davlatlarining siyosiy kuchga ega bo'lgan qudratli davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan geosiyosiy munosabatlarning Yevroosiyo mintaqasiga siyosiy, tarixiy, ijtimoiy ta'siri va hukumronlik qilish uchun qilingan say–harakatlarning davriy bosqichi va uning mazmun–mohiyatini yoritishdir.

Kalit so'zlar: Yevroosiyo mintaqasi Oltin O'rda, Amir Temur davlati, geosiyosiy hudud, mintaq, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy hudud, Turon atamasining paydo bo'lishi, turkiy xalqlar.

Tog'ayeva Dilnoza Mirakhmatovna

Stage 1 doctoral of UzSWLU

Security of the Eurasian region: concept and essence

(between the 14th and 15th centuries)

ANNOTATION

The political, historical, social impact of the geopolitical relations between the powerful states of the Golden Horde, the Ottoman Turks, and the Turanian states, which dominated the territory of foreign-political relations and cooperation relations in the Eurasian region, is a political, historical, social It is to illuminate the periodical stage of influence and efforts to rule and its essence.

Key words: Eurasian region Golden Horde, Emir Timur state, geopolitical region, Region, social, political, historical region, Eurasian emergence of the term, Turkic peoples.

Тогаева Дилноза Мирахматовна

1–курс докторант УзГУМЯ

Безопасность Евразийского региона: понятие и сущность

(между XIV и XV веками)

АННОТАЦИЯ

Политическое, историческое, социальное влияние геополитических отношений между могущественными государствами Золотой Орды, турками-османами и туранскими государствами, доминировавшими на территории внешнеполитических связей и отношений сотрудничества в Евразийском регионе, является политическим, исторический, социальный. Он призван осветить периодическую стадию влияния и усилий по управлению, а также ее сущность.

Ключевые слова: Евразийский регион Золотая Орда, государство Амира Темура, геополитический регион, регион, социальный, политический, исторический регион, Евразийский происхождение термина, тюркские народы.

Yevroosiy mintaqasining siyosiy strategyasi va uning tashqi.siyosiy munosabatlarning davriy bosqichi haqida fikr–mulohaza yuritadigan bo'lsak, qadimiy o'tmish davrlarga nazar solmasdan ilojimiz yo'q. Albatta, biz Yevroosiy mintaqasida hukumronlik qilgan davlatlar va ularning siyosiy mushtarakliklarga tayanamiz. XIV asr Yevroosiy xaritasi va uning siyosiy, iqtisodiy gegemon davlatlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, albatta hamkorlik aloqalari va ijtimoiy munosabatlarning siyosiy mavqiyiga to'xtalib o'tamiz. Yevroosiy geosiyosiy konsepsiyasida G'arb, Sharq, Yevropa, Osiyo geosiyosiy mintaqasida juda katta etnografik millat va hududni o'z ichiga olgan. Jumladan, XIV asrda ushbu o'lkada siyosiy mintaqaning katta qismi hukumronlik qilgan davlat Turon zaminidir. Ushbu geosiyosiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlat haqida tadqiqotchilarning fikr –mulohazalari va tahlilicha, “Turon” atamasiga alohida e'tibor qaratadi va bu davlat ulkan hududni qamrab olgan. Turon (forscha so'z bo'lib ya'ni turkiylar demakdir)–turkiy xalqlar yashaydigan geografik makonni bildirgan ijtimoiy, tarixiy – etnik atama. Turon hududi faqat geografik emas, tarixiy–geografik, ijtimoiy, siyosiy talqinga ega. Turon hududi Tinch okeanidan O'rta yer dengizidagi Egey – Adreatikagacha, Shimoliy muz okeanidan Tebit, Himoloy tog'larigacha, shimoliy Hindistondan Onado'ligacha (Turkiya) bo'lgan kengliklarini, u yerda yashovchi turkiy xalqlarni birlashtirgan. “Yevroosiy”, “Turon” atamalari bir – birini to'ldirib keladigan nazariy

ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy atamadir.. Shuning uchun Turon zaminining strategik sheriklari Xitoy, Mo'g'uliston, Oltin O'rda, Eron kabi yirik davrlarlardi. "Turon" - bu to'laqonli "mahalliy rivojlanish", etnogenez va madaniy genezisning serhosil boy tuprog'idir. Jahon tarixi ko'p qutbliligi bilan ajralib turadi va ayniqsa, Turon davlati Yevroosiyo mintaqasi davlatchiligining asosini tashkil etgan O'rmon va Dashtning geosiyosiy sintezi Osiyo va Sharqiy Yevropa madaniy va strategik siyosatini nazorat qilgan. Bunday nazorat Sharq va G'arb o'rtasidagi uyg'un muvozanatni ta'minlashga yordam beradi. G'arb sivilizatsiyasining madaniy cheklovlari (O'rmon), hukmronlikka intilishi bilan Sharq (Dasht) madaniyatini to'liq tushunmaslik bilan birga, faqat mojarolarga olib keladi va g'alayonlarga sabab bo'ladi. G'arb sivilizatsiyasida—qadimiyl turkiy etnik guruhlarning etnogenezning turk ko'chmanchilik an'alarini mujassamlashtirgan o'ziga xos sivilizatsiya ekanligini va mazkur madaniyatlar «o'rtaliq» makonda jahon tarixining sintezi sifatida shakllanganligini bilamiz. (XIII - XV asrlar). *Bu jihatdan uning Turon konsepsiyasiga to'xtalmoq o'rinlidir. Ayniqsa, Amir Temur haqida ulkan davlatning davomchisi, Osiyoni birlashtiruvchi degan fikrni aytadi. U tarixiy joylashtirilgan —dasht elementlarini birlashtiradi. Bundan tashqari, bunday sintez ikki geosiyosiy tizimning bir-birining ustiga qo'ygan, o'z o'lchovi va baholash metodologiyasiga ega bo'lgan ajralmas, o'ziga xos tushunchadir Amir Temur mamlakat tinchligi, farovonligi va taraqqiyotida hukumdor kata pole o'ynashini chuqur anglab yetgan davlat arbobi edi. Chunki uning davrida taraqqiyot, tinchlik va farovonlik ko'pincha podshohlarning siyosiy ilmiy, aql-zakovati, adolati, xushyorligi va boshqa sifatlariga bog'liq edi.¹ Amir Temur tarixan juda qaltis vaziyatda siyosat maydoniga kirdi. XIII asrning birinchi choragida bosib olingan (O'rta Osiyoda salkam uch yil ichida, ya'ni 1219-1221 yillarda istilo qilingan edi) asoratga solingan Maovoraunnahr va Xuoson, qolaversa, rus, xullas mo'g'ul bosqinchilarining oyog'i yetgan hamma mintaqalarda ezish, talash, xo'rlashsiyosati davom etayotgan edi.² Mo'g'ul feodallarining o'zaro nizolari noroziligidan ko'pdan bo'yon ichida yutib kelayotgan Turkiy aholining nufuzli vakillariga ta'sir qilmasligi mumkin emas edi Turkiy aholining yetakchilari mo'g'ul to'ralarining o'zaro to'palonlarida goh u tomonda, goh bu tomonda turib bo'lsada siyosiy kurashlarga aralasha boshladilar.³ Jumladan Yevroosiyo mintaqasida siyosiy qudratga ega bo'lgan*

¹ Sh. O'ljayeva Amir Temur davlat boshqaruvi Toshkent Akademik nashr 2017. 23b

² S.Toshkandiy Temurnoma T. Cho'lpon. 1991. 5 bet

³ S.Toshkandiy Temurnoma T. Cho'lpon. 1991. 6 bet

Turon zamini haqiqatdan Sohibquron Amir Temur hukumronligi davrida yuksak marralarga erishdai va geosiyosiy qudratga ega bo'ldi. XIV asr Turon mintaqasi lbir qancha atrofidagi davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini olib bordi. Darhaqiqat Amir Temur alloma Salohiddin Toshkandiy takidlaganidek juda ham siyosiy vaziyatlar og'ir paytida hokimiyat tepasiga kelgan bir paytda butun Yevroosiy mintaqasida diniy, siyosiy munosabatlar, qarama – qarshi kuchlarning munosabatlari avj olgan bir davr edi. Oltin O'rda xonligi, Usmoniylar, Vizantiya, Misr, Rim imperiyasi kabi davlatlar o'rtasidagi siyosiy, diniy munosabatlar og'ir vaziyati edi. Yevroosiy mintaqasidagi ushbu qudratli davlatlar bilan Turon zamini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, dipomatik aloqalar olib bordi Ma'lumki, Yevroosiy mintaqasi turli ijtimoiy – siyosiy kuch tuzilmasi sifatida mavjud bo'lgan. Turon zaminida Amir Temur buyuk saltanat barpo etish borasidagi say harakatlarini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Amir Temur hukumronligining siyosiy boshqaruv tiziminig mohiyatini yoritadigan bo'lsak, davlat va jamiyat hayotida qurultoy, kengash singari ijtimoiy- siyosiy institutlarga ahamiyat qilganligi haqida dalolat beradi va bu tizimning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Mir Temur har bir holatni siyosiy falsafiy strategik jihatdan tahlil va talqin qilgan buyuk hukumdor bo'lib, Shu bilan birga boshqaruv tuhunchasiga alohida aniqlik kiritiladi. Amir Temur qabul qilgan har bir qaror va farmonlarining hayotga tatbiq etilayotganligini, ijro etuvchi boshqaruv tashkilotlarini belvosita nazorat qilgan Amir Temur siyosiy va hamkorlik sohasidagi har qanday ma'lumotni ko'zdan kechirgan v bu farmon yorki qaror mintaq bo'ylab nizolarga sabab bo'lish yoki bo'lmasligini tahlil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Amir Temur nafaqat siyosatshunos, faylasuf balki, juda ham mukammal bilimga ega bo'lgan analitik tahlil qiladigan buyuk sarkarda bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, Iskandar Zulqarnayn, Yuliy Sezar, Horun ar-Rashid, va Ma'mun singari tarixda o'chmas iz qoldirgan shaxslar qatorida Amir Temur ham siyosiy qudratga ega bo'lgan buyuk strategy hukumdor bo'lgan. Shuningdek, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida e'tirof etilgan. Temur davlati tuzilishi sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirdi Amir Temur davlatni boshqarishda ko'p narsalarga e'tibor berib, ularni bajarishga harakat qildi. Birinchi – uning davlati va saltanatiga bog'langan birinchi tuzugini u Tangri taoloning dini, Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj bergan. Har yerda va har vaqt islom dini quvvatlaganligidir. Ikkinchi – 12 tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etgan, ularni idora qilgan. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan o'tkazgan. Uchinchi – maslahat kengashi

tadbirkorlik faollik va hushyorlik bilan g‘animni o‘ziga bo‘ysundirgan. Saltanatini ishlarini muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizgan.⁴ To‘rtinchi – davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqargan. Amirlar, vazirlar, inoqlar lavozimida mamnun holda xizmat ko‘rsatishgan. Beshinchi – amirlar va sipohiylarni martaba va unvonlar bilan taqdirlagan. Oltinchi – adolat va insof bilan gunohkorlarga ham, begunohlar ham rahm qilib, tangrining yaratgan bandalarini o‘zidan rozi qiladi. Yettinchi – sayidlar, oqilu-donolar, olimlar, tarixchilarni izzat hurmatini joyiga qo‘ygan. Sakkizinchi – azmi-jazm bilan ish tutgan. To‘qqizinchi raiyat ahvolidan ogoh bo‘lgan, ulug‘ni ulug‘, kichikni kichik o‘rnida ko‘rgan. O‘ninchi – turku-tojik, arab ahlining turli toifa va qabilalardan bo‘lgan kishilarning ulug‘lariga hurmat bilan qaragan. O‘n birinchi – farzandlar, qarindoshlar, qo‘shnilar va ular bilan bir vaqtda do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne‘mat martabasiga erishganida unutmay ularning haqlarini ado etgan. O‘n ikkinchi – do‘stu-dushmanligiga qaramay har joyda sipohiylarni hurmat qilgan. Amir Temur o‘z vazifalarini 4 toifaga bo‘lgan. Birinchi – asillik, toza nasllilik; Ikkinchi – aql-farosatlilik; Uchinchi – sipohu rayiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlilik. To‘rtinchi – sabr-chidamlilik va tinchlik kabilarga ega bo‘lishi kerak.⁵ jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan hukumdordir. Yevroosiyo mintaqasida ushbu davlat boshqaruvini joriy etilishiga ham sababchi bo‘lgan hukumdordir. Amir Temur buyuk Turon davlatining Yevroosiyo mintaqasida qudratli va mustahkam davlat ekanligini ko‘rsata oldi.

Jumlada Yevroosiyo nimaqasida Turon davlatining siyosiy strategik ahamiyati juda ham ahamiyatli bo‘lgan bo‘lib, XIV asr mintaqa taraqqiyotida xalqaro munosabatlarda davlatlar uxafsizligini ta‘minlash, harbiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda amaliy ko‘magini bergaligi va mintaqaviy adolat o‘rnatish va imperiyalar o‘rtasida siyosiy ishonchni mutahkamlash, xalqaro munosabatlarga turli xil tartibsizliklarni bartaraf etish, Yevroosiyo mintaqasida nizolarni siyosiy yo‘l yoki harbiy yo‘l bilan adolat o‘tntatishga harakat qilganligini tahlili jarayonda o‘rganishimiz mumkin. Yevroosiyo mintaqasining tashqi va xalqaro aloqalarida birlamchi munosabatlar ahamiyat kasb etgan bo‘lib, o‘ziga xos milliy madaniyat diniy tafovut, madaniy munosabat, etnogenik kelib chiqish, ulkan ipmeriyalar o‘rtasigagi siyosiy hukumronlik, o‘z mohiyatiga ko‘ra maqsadlar barqarorligi,

⁴ B.Ahmedov Amir Temurni yod etib T. O‘zbekiston. 1996. 8.b

⁵ “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022. 68 b.

diplomatik munosabatlar, shahar va davlatlar o'rtasidagi siyosiy – hududiy ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkinligini guvohi bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- **Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi**” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022. 68 b.
- Salohiddin Toshkandiy Temurnoma Toshkent. Cho'lpon. 1991. 6 bet
- Sh. O'ljayeva Amir Temur davlat boshqaruvi Toshkent Akademik nashr 2017. 23.b
- B.Ahmedov Amir Temurni yod etib T. O'zbekiston. 1996. 8.b